



CHDPU
CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



MEDIA MAKONDA SUN'IIY INTELLEKT:

YANGI TARIX VA YANGI DUNYOQARASH



Ilmiy-amaliy
konferensiya
MATERIALLARI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**“MEDIA MAKONDA SUN'IY INTELLEKT: YANGI TARIX VA YANGI
DUNYOQARASH”**

ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI

(Chirchiq sh, 2025 yil 5 noyabr)

“Media makonda sun'iy intellekt: yangi tarix va yangi dunyoqarash”

mavzusidagi

KONFERENSIYA TASHKILY QO'MITASI

Rais:

Muxamedov G.I.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori

Tashkiliy qo'mita a'zolari:

Eshchanov B.X.

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

Ikramov R.A.

Gumanitar fanlar fakulteti dekani

L.K.Axatov

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri

Tashkiliy qo'mitaning ishchi guruhi:

Madalimov T.A.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti

Koshanova N.M.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti

Tashmetov T.X.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti

Neshitov P.Yu.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti

Eronov S.Q.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Xaytmetov R.K.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Muhammadiyev L.G.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Nafasov A.K.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Sunnatov T.R.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Tuganova L.Dj.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Ilmurodova F.Sh.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Yo'ldoshev U.X.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Sa'dullayeva M.X.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Xolmo'minov G.B.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Miraxmedova Sh.N.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Jurayev H.M.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Yakubov X.M.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Imomova U.I.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Tadjibayeva R.O.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Umarova Sh.B.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Nurmanov Sh.J.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Maxkamov D.Sh.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Fayzullayev F.E.

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

MEDIA MUHITDA AXLOQIY TAMOIYILLAR VA UNING JAMIYATDAGI AXAMIYATI

Tadjibayeva Ruxshona Oktamovna.

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti, Gumanitar fanlar fakulteti, Fakultetlararo
ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada axloqiy tamoyillari, jamiyat axloqiy asoslari va ularning media muhitidagi o'rni. Davlat organlari va rasmiylarning xalq bilan muloqotdagi ochiqqligi to'g'risida qisqacha bayon qilindi.

Kalit so'zlar: Axloqiy normalar, xulq atvor, media muhiti, axborot tarqatish madaniyati, jamiyatdagi axloq asoslari.

Abstract: This article briefly describes the principles of morality, the moral foundations of society and their role in the media environment. The openness of state bodies and officials in communicating with the people.

Keywords: Moral norms, behavior, media environment, information dissemination culture, the foundations of morality in society.

Аннотация: В статье рассматриваются этические принципы, моральные основы общества и их роль в медиасреде. Было сделано краткое заявление об открытости органов государственной власти и должностных лиц в общении с народом.

Ключевые слова: Моральные нормы, поведение, медийная среда, культура распространения информации, основы нравственности в обществе.

Kirish

Axloqiy tamoyillar. Axloqiy tamoyillar jamiyatning axloqiy asoslari har qanday jamiyatning o'ziga xos axloqiy qoidalari bo'lib, har bir shaxs o'zining ichki e'tiqodiga ko'ra yashaydi. Insoniyat tarixida turli xalqlarning ilm-fan va madaniyat yo'nalishida buyuk yutuqlarga erishgan davrlari bo'lib o'tgan. Bu davr bugungi kunimiz uchun ulkan samara bergan, shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Buyuk ajdodlarimiz ilmiy merosini chuqur o'rganish va dunyoga targ'ib etish bizning muqaddas burchimizdir."³⁸ IX–XII asrlar oralig'ida Islom sivilizatsiyasining gullab-yashnashi natijasida Sharq Uyg'onish davri yuzaga keldi. Ushbu davr Islom olamida ilm-fan va texnologiyaning jadal rivojlangan, mutafakkirlar va olimlar ijodi orqali yangi ilmiy yutuqlar kashf qilingan muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu maqolada Sharq Renessansining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan omillar, asosiy

³⁸ Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". Toshkent, 2021

ilmiy markazlar va olimlar, ilm-fan sohasidagi ulkan yutuqlar hamda ularning butun jahon tamadduniga ta'siri keng yoritiladi. O'zbekistonda jamoatchilik bilan aloqalar, xalq bilan muloqot muhim ijtimoiy institutga aylanmoqda. Jamoatchilik fikri – fuqarolik jamiyatini o'zida aks ettiradigan bamisoli bir ko'zgu ekanligi hayotda o'z isbotini topmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori (3-ilova) mazkur sohani yanada rivojlantirishda g'oyat muhim qadam bo'ldi. Bu haqda O'z OAV Milliy matbuot markazida bo'lib o'tgan «OAV sohasida o'zini o'zi boshqarishning samarali usullari» mavzusidagi davra suhbatiyakunlari bo'yicha xabar qildi. O'zbekiston Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Innovatsion rivojlanish, axborot siyosati va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi hamda O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi hamkorligida tashkil etilgan mazkur davra suhbatida asosiy e'tibor O'zbekiston jurnalistlarining odob-axloq kodeksi loyihasi muhokamasiga qaratildi.

Tadbirda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, YUNESKO, Yevropa Ittifoqining Toshkentdagi vakolatxonalari, «Regional dialog» xalqaro tashkiloti, Buyuk Britaniya elchixonasi vakillari, axborot sohasi mutaxassisleri, yetakchi ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi. «O'zbekiston jurnalistlari odob-axloq kodeksini qabul qilish biz uchun juda muhimdir. Dunyoning rivojlangan davlatlarida jurnalistlarning professional kasb etikasi kodekslari mavjud va ularda barchamiz uchun muhim bo'lgan qoidalar aks etgan. Shu o'rinda jurnalistik faoliyat etikasi yuridik me'yor emasligini alohida qayd etish lozim. U media muhitda qabul qilinadigan va jamoatchilik fikri bilan qo'llab quvvatlanadigan ma'naviy-axloqiy yo'riqnoma hisoblanadi», — dedi O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi raisi Sa'dulla Hakimov.

Media savodxonlik media funktsiyalarini tushunish, mazkur funktsiyalarni amalga oshirish sifatini baholash va o'z-o'zini ifoda etish, shuningdek, ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish uchun medialar bilan ratsional hamkorlikka kirishishga urg'u beradi. Mediasavodxonlik – mediata'limning natijasidir. Media ta'lim ommaviy axborot vositalarining zararli ta'siri va tendentsiyalaridan himoya qilish vositasi sifatida paydo bo'lgan. Ushbu paradigmadan birinchi bo'lib 1930-yillarda Buyuk Britaniya foydalangan. Buyuk Britaniya va Avstraliyada mediasavodxonlik gumanitar fanlar majmuasiga alohida kurs sifatida kiritilgan. Fillandiyada media va axborot savodxonligi yo'nalishi 1970-yillardan boshlab maktab va universitetlar o'quv dasturlariga kiritilgan. Mediata'lim komponenti maktab programmasiga birinchi bor

kiritilganda mustaqil fan sifatida emas, balki ona-tili, tarix, estetik fanlar va ekologiya fanlariga integratsiya qilingan. 2021-yilda e'lon qilingan Mediasavodxonlik indeksiga ko'ra, Finlandiya "yolg'on xabarlar va dezinformatsiyaning salbiy ta'sirlariga qarshi turishda eng yuqori salohiyatga ega mamlakat" sifatida e'tirof etilgan va indeksda birinchi o'rinni egallagan. Shvetsiyada mediata'lim 1980-yildan boshlab ta'lim muassasalarida alohida fan sifatida o'qitila boshlangan. Media ta'limni joriy etishdan asosiy maqsad yoshlarda ommaviy axborot vositalarining xabarlarini tanqidiy idrok etish qobiliyatini rivojlantirish, turli xil ma'lumotlar manbalaridan olingan xabarlar haqida o'z fikrini shakllantirish, shuningdek, tomosha qilingan filmlar va teledasturlar haqida o'z fikrini bildirish qobiliyatini shakllantirish bo'lgan. 2000-yilning kuzidan boshlab mediata'lim Shvetsiya milliy o'quv dasturiga rasman kiritilgan. Ayrim mamlakatlarda media ta'limni qo'shimcha ravishda amaliy, me'yoriy kiritish ba'zi fanlarni o'rniga yoki ular o'rtasidagi oraliq fan sifatida o'qitishga qaror qilingan, ya'ni, darsdan tashqari vaqtda maktab gazetalari va jurnallari, radio eshittirishlar va audiovizual mahsulotlari yaratiladi. Yaratish jarayonida ishtirokchilar mediadan foydalanishning turli usullari bilan bevosita tanishish imkoniyatini qo'lga kiritadilar. Har oyda o'zgarib turgan mazkur raqamlar bugungi kunda zarur axborotni kerak emasidan ajratish, media orqali savodxonlikka ega bo'lish zaruratini qo'ydi. An'anaviy tarzda mediasavodxonlik shaxsning adabiy asarlarni tahlil eta olish va sifatli matnlarni yaratishidan iborat bo'lgan. Bugun mediasavodxonlik – xulosa chiqarishi, unga nisbatan tanqidiy yondoshishi lozim. Mazkur savollar nafaqat siz oilangiz davrasida televizor ko'rayotgan, mashinada radio eshitayotgan yoki internetdagi xabarlarni ko'rayotgan paytda berilishi, balki har qanday axborotni qabul qilayotgan va unga baho berayotganda ham kerakdir. Bugungi axborot muhitni tushunishda mediasavodxonlik muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqiy demokratik jamiyatimizning to'laqonli, faol fuqarosi sifatida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyatini tushunish; OAV orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko'nikmalarini shakllantirish; Axborot orqali inson ongini boshqarishga yo'l qo'ymaslik va har qanday vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish; Insonning vizual obrazlar ta'siri ostida ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishlarini tahlil eta olish va vizual xabarlar ostida beriladigan ko'rinmas ma'lumotlarni "o'qiy olish"; OAV orqali beriladigan matnli kommunikatsiyalar mohiyatini tahlil etish; Axborot qaerdan, kim tomonidan va nima maqsadlarda uzatilyapti, kimning manfaatlarini o'zida aks etayapti, degan savollarga javob topa olish uchun zarurdir. Mediasavodxonlik tushunchasi borasida turli xil fikrlar mavjud bo'lib, A.Q.Sh.ning jamiyat xususidagi xalqaro entsiklopediyasida qayd etilishicha, «Mediasavodxonlik» (media literacy) inson

jamiyatdagi fuqaro sifatidagi mas'uliyatini his qilgan holda faol va savodli bo'lishi, media matnlarni qabul qila olishi, yaratishi, tahlil eta olishi va baholashi, zamonaviy mediani ijtimoiy-madaniy va siyosiy mazmunini tushuna olishi demakdir. Londonning Qirollik universiteti professori S.Fayrstounning fikriga ko'ra esa, mediasavodxonlik harakat bo'lib, uning asosiy vazifasi insonlarni audiovizual va bosma matnlarning madaniy ahamiyatini tushunish, yaratish va baholashga undashdan iborat. Ingliz siyosatshunosi R.Kibey esa mediasavodxonlikni turli xil shakllarda ma'lumotlarni uzatish, ularni tahlil etish va baholash deb tushunadi. M.Guetterz esa multimediasavodxonligi o'z ichiga multimedia hujjatlarini shakllantirishga qaratilgan tillarni bilish, axborotni qayta ishlashga qaratilgan qurilma va usullardan foydalana olish, yangi multimedia texnologiyalarini bilish va ularni baholay olish, media matnlarni tanqidiy qabul qilishni oladi, deydi.

Fikrimizcha, mediasavodxonlik yuqorida bildirilgan fikrlar bilan birgalikda ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan barcha axborotga tanqidiy qarash, ularga xolis yondoshish va har bir uzatilayotgan axborotni saralashda ongli ravishda yondashish hamdir. Mediasavodxonlikning maqsadi har bir medianing ustuvorliklari va kamchiliklarini tushungan holda ular tomonidan tarqatilayotgan axborotni saralay bilish va zarurini qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'lsa, asosiy vazifasi insonlar tomonidan iste'mol qilinadigan har qanday axborotning manipulyativ kuchini anglagan holda undan chegaralanishdir. Shuningdek, odamlarga OAV hamda fuqarolik jurnalistika rolini tushunishga yordam berishdir. Taniqli hind fotojurnalisti Pabak Sarkarning fikriga ko'ra, mediasavodxonlik sari tashlangan ilk qadam, bu to'g'ri savol bera olishdir. Bugungi kunda Internet orqali amalga oshirilayotgan axborot xurujlar dunyodagi har bir mamlakat milliy xavfsizligi strategiyasining bir qismiga aylandi va u kiberxavfsizlik nomini oldi. Zero, virtual va haqiqiy dunyoning qo'shilishi, aynan virtual dunyo orqali yoshlar tomonidan haqiqiy dunyoni noto'g'ri tushunilishi, turli xil salbiy kuchlar va oqimlar tomonidan bir qarashda ijobiy ko'ringan, ammo mohiyatan inson ongiga salbiy ta'sir qiluvchi axborotning tarqatilishi ko'payib borayotganligi hech kimga sir emas. Aynan jamiyat hayotiga ta'sir etuvchi mazkur salbiy jihatlarning oldini olishda aholini mediasavodli qilish zarur, degan fikrlar ko'paymoqda. Bugungi kunda mediasavodxonlik Buyuk Britaniya va Avstraliyada gumanitar fanlar majmuasida alohida fan sifatida o'tilsa, Finlyandiyada 1970-yildan o'rta maktablarning, 1977-yildan esa oliy o'quv yurtlarning o'quv dasturlariga kiritilgan edi. 1990-yillarda esa mamlakatda mediasavodxonlik media ta'lim tushunchasi bilan almashtirildi. Shvetsiyada u 1980-yildan boshlab ta'lim muassasalarida alohida fan sifatida o'qitila boshlangan. 1990-yillarda Rossiyada media ta'limni ilmiy tadqiq

etishga urinishlar bo'lib, O.Baranov, S.Penzin, A.Fyodorov, A.Sharikova va boshqalarning tadqiqotlari bunga misol bo'la oladi. 2002-yili pedagogika oliy ta'lim yurtlari uchun mediata'lim ixtisosligi bo'yicha yo'nalish ochildi. 2005-yili esa YuNYeSKO homiyligida "Mediata'lim" darsligi yaratildi va Rossiyada kinota'lim va mediapedagogika sayti ishga tushirildi. OAV orqali tarqatilayotgan axborotning manipulyativ ta'siri kuchliligini bugun hech kim inkor etmaydi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, OAV orqali tarqatilayotgan xabarning haqqoniyligiga ishonish ilk gazetalar paydo bo'lishi bilan yuzaga kelganligini ko'rish mumkin. 1874 yilning 9 noyabr kuni New York Herald gazetasida reportyor T.B.Konneri tomonidan Sentral Park hayvonot bog'ida yirtqichlar chiqib ketib, "ikki yuzga yaqin odam jarohatlangan, toptalgan bo'lib, oltmish nafari og'ir ahvolda. Ulardan uchasi ertalabgacha yetib bormasligi mumkin. O'n ikkita yirtqich hayvon hamon erkinlikda. Ular qaerga yaqinlashganligi hozircha noma'lum" deya yolg'on xabar bosib chiqarilib, uning oxirida gazeta mushtariylari xavotirga tushmasliklari, bularning barchasi uydirma ekanligi yozilgan edi. Ammo ko'pchilik xabarning aynan shu joyigacha yetib kelmay, yashirinishga, ba'zilar esa qo'lga qurol olib yirtqichlarni o'ldirish uchun hattoki ko'chaga chiqishgan. 1939 yili CBS radiostantsiyasi Orsona Uelles tomonidan Mercury teatrida Gerbert Uellsning "Dunyolar urushi" romani asosida qo'yilgan asarining radiopostanovkasini efirga uzatayotgan paytida ommaviy tartibsizliklar yuz bergan. Roman syujetiga ko'ra, marsliklar yerni bosib olib, millionlab insonlarni gaz bilan zaharlaydilar. Ko'pgina odamlar radiopostanovkaning birinchi qismini eshitgan daqiqalardan boshlab qochishga, "dushmanlar"dan yashirinishga harakat qilishgan. 1835 yili birinchi Amerika tabloidi New York Sun jurnalist Richard Adame Lokkning ingliz astronomi oyning yuzasida aqlli jonzoatlarni teleskop orqali ko'rganligi haqidagi yolg'on xabarni bosib chiqaradi. Natijada gazetaning adadi o'sha payti eng yuqori ko'rsatkich — 19 ming donaga yetadi. Hattoki, xristian ayollar jamiyati ularni nasroniy diniga kiritish uchun Oyga uchish taraddudiga ham tushishadi. Bugun OAVning ta'siri o'sha paytdagidan kam emas. Aynan axborotni tahlil etmay, o'z holicha qabul qilish oqibatida dunyoning turli chekkalarida yoshlar jinoyatga qo'l urmoqda, o'zini kino asari qahramoni sifatida his qilganlar esa, "qahramon" xatti-harakatlarini takrorlagan holda qo'llariga qurol olib, begunoh insonlar hayotiga zomin bo'lishmoqda. Demak, aynan ana shu holatlarning oldini olish, axborotga ongli ravishda yondoshish bugun zamon talabidir. Hozirda medianing tahlil etilishi natijasida tilimizga kirib kelayotgan tushunchalar, ya'ni mediasavodxonlik, mediata'lim, mediani o'rganish va boshqalar bir- biri bilan bog'liq bo'lsa-da, olimlar ularni mohiyatan bir-biridan farqlashga urinmoqdalar. Fikrimizcha, mediasavodxonlik mediata'limning uzviy bog'liq

qismidir. Shu bilan birgalikda uning ko'rinishlari ko'paymoqda. Bugungi kunda mediaaxborotni qabul qilish, saralash, tahlil etish, baholashda mediasavodxonlik tushunchasi bilan birgalikda mediata'lim, mediani o'rganish, mediamadaniyat tushunchalari ham qo'llanilayapti. Bugungi kunda media, ya'ni ommaviy axborot vositalari, kino, teatr, san'atning turlari, madaniyat sarchashmalari, internet orqali uzatilayotgan har qanday ma'lumot inson ongiga o'zining ma'lum bir ta'sirini o'tkazib, uning dunyoqarashini o'zgartirishga sabab bo'lmoqda. Yuqorida tilga olingan tushunchalarning qo'llanilishi va bugungi kunda mediata'lim, mediasavodxonlik, mediatanqid va mediani o'rganishga bo'lgan intilishning asosiy maqsadi ham axborotning yaratilishi, uning tarqalish jarayonini tushunib yetish, tijorat, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va madaniy maqsadlarda tarqatilayotgan axborotning mohiyatini manglagan holda uni baholay olishdir. Ayni paytda media ta'lim asoslarini har bir ta'lim muassasasiga o'quv dasturiga kiritish, bolalarga maktabgacha ta'lim jarayonida uning asoslarini interaktiv, turli o'yinlar shaklida tushuntirish, o'sib kelayotgan avlod tomonidan shiddatli axborot oqimida zarurini tanlash va unga tanqidiy yondoshgan holda baholay olish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida yoshlarning kelajakdagi fuqarolik pozitsiyasini yanada mustahkamlanishiga, jahonda yuz berayotgan voqea hodisalarni xolis baholab, to'g'ri qaror qabul qila olishiga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'aniyev S. K., Karimov M. M., Tashev K. A. AXBOROT XAVFSIZLIGI Toshkent.
2. S.S. Qosimov Axborot texnologiyalari xaqida o'quv qo'llanma Toshkent.
3. G'aniyev S.K. Karimov M.M. Hisoblash tizimlari va tarmoqlarida axborot xavfsizligi TDTU.
4. Potter, W. James. Media savodxonlik (9-nashr). SAGE Publications, 2021.